

"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

"OMMAVIY MADANIYAT"NING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Eshmatov Rustam

Javbekova Sharofat

SamDU "Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy
fanlar fakulteti", sotsiologiya yo'nalishi
3- bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bugungi globallashuv davrida ommaviy madaniyat mamlakatimiz yoshlari ongiga ta'siri va jamiyatda yoshlar o'rning susayishi muammosi yoritilgan.

Kalit so'zlar: zo'ravonlik, individualizm, „antikultura“, ommaviy madaniyat, G'arb madaniyati, "Amerikaliklar", egotsentrizm g'oyalalar, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, internet, OAV.

XXI asrning eng global mavzulardan biri bolib kelyotgan "Ommaviy madaniyat" yechimi yòq masaladek bòlib bormoqda. Ushbu mafkura haqida qayta-qayta, bod -bod yod etilishiga qaramay, yer yuzini kundan kunga kengroq qamrab olmoqda. Özbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qaramaqarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani-ayni haqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi,"¹. Ushbu mafkura yoshlarimizning ongni juda tez örnashib olmoqda. Qayerga qaramaylik "Ommaviy madaniyat" turli shakliga guvoh bo'lamiz. Ko'ngilochar telekanallar, radio efirlar, gazeta-jurnallar, kino, serial, multfilm va hakozolar, "san'at asar"lari zamirida targ'ib etilayotgan zo'rovonlikni, axloqsizlikni, egotsentrizm g'oyalarni o'z vaqtida anglab ularga qarshi mafkuraviy immunitetni hosil qilish bugun faqat bizning mamlakatda yoki mintaqada emas, butun jahonda eng dolzarb masala bo'lib turibdi."Ommaviy madaniyat" haqida gapirar ekanmiz, avvalo bu tushuncha madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xilda talqin qilinmaydigan oziga xos shakli.

1 Özbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Komolot" harakatining IVqurultoydagi nutqi

"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

Ommaviy madaniyat G'arb madaniyati bilan bogliq hodisa deb tushuniladi, shuningdek, u g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida talqin qilinadi. Ommaviy madaniyat chuqr ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega. Ommaviy madaniyat paydo bolishining ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari yirik sanoat ishlab chiqarishning paydo bolishi bilan bogliq.

Ommaviy madaniyat korinishlari:

Kitch (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bolmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish),

komiks (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa rasm mahsulotlari),

starizm (subektiv ehtiroslarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktordi ilohiyashtirish),

Hippining (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan keskin tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobilarni urib abjag'ini chiqarish yoxud ot qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy kongil ochish"lar uyushtirish) ommaviy madaniyat"ning ayrim korinishlaridir.

"Ommaviy madaniyat" tahdidlarining inson ongiga salbiy ta'sirlari quyidagilardan iboratdir:

- "ommaviy madaniyat" inson ongini real hayotdan
- uzoqlashtiradi va soxta yaratilgan obrazlarga yo'naltiradi;
- aldovga oson ishonadigan shaxslarni paydo qiladi;
- insonni ishlab chiqaruvchiga emas, faqat iste'molchiga aylantiradi.
- insonni milliylikka borib taqaluvchi ildizlarini kesadi va ma'naviy jihatdan qashshoqlashtiradi.

Afsuski, bugungi kunda ham jamiyatimizda "ommaviy madaniyat" niqobidagi mafkuraviy tahidlarning yoshlарimiz ongiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarini kuzatishimiz mumkin, jumladan: bizga ma'lumki yoshlарimiz Internet orqali ko'plab norasmiy saytlardan ro'yxatdan o'tishgan. Albatta bunga ularagi g'oyaviy bo'shliq sabab.

Darhaqiqat, hech qanday bo'shliqqa, ayniqla mafkura sohasidagi bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. "Tabiat bo'shliqni yoqtirmaydi" - degandi amerikalik mashhur mutafakkir Jorj Bernand Shou - "Kishilar haqiqatni bilmaydigan joyda ular bo'shliqni uydirma bilan to'ldirishadi" Shu sababli ham yangi davlatlar mustaqillikning dastlabki, eng beqaror bosqichida milliy xavfsizlik, barqarorlik va mafkuraviy himoyalanganlik nuqtai nazaridan juda nochor bo'lib qolishgan. Mafkura sohasida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmasligini endi jamiyatimiz a'zolarining



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

ko'pchiligi anglab oldi. Biroq SSSR parchalangach hosil bo'lgan mafkuraviy bo'shliq Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning uncha katta bo'limgan tarixi davomida juda hilmi-xil g'oyalar hamda oqimlar bilan to'ldirila boshlangandi. Va mana shu qisqa vaqt tarixi davrida, omma orasida madaniyatning madaniyatsiz ko'rinishlari paydo bo'la boshladi...

"Ommaviy madaniyat" atamasi birinchi marta 1941 yilda nemis professori M. Xorkxaymer va 1944 yilda amerikalik olim D. MacDonald tomonidan kiritilgan. Bu atamaning mazmuni qarama -qarshi. Bir tomonidan, mashhur madaniyat - "Hamma uchun madaniyat", boshqa tomonidan, bunday madaniyat "ommaviy madaniyat" ostida madaniyatsizlik, axloqsizlik yotadi.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilmfanda „antikultura“ („g'ayrimadaniyat“) degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun „Pop (ommaviy) madaniyat“ tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, „ommaviy madaniyat, aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. „Ommaviy madaniyat“ shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib keladi. Bizning oldimizdagи vazifa xalqimizni, yoshlarimizni ana shu taqlidchilikdan, ko'r-ko'ronaergashuvchanlikdan saqlashga erishmog'imizdir. Buning uchun esa, avvalo, ziyolilarning o'zi chin va soxta qadriyatlar orasidagi nozik farqni teran anglab ola bilmog'i lozim. Özbek xalqining yillar davomida foydalanib kelgan urf-odatlar, udumlar, qadriyatlar, madaniyat va milliylik xususiyati mavjud bolib, taniqli o'zbek adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek aytganlaridek "O'zbek xalqi azaldan buyon madaniyat bulog'ining boshida bo'lgan." Bizning buyuk qadriyatlarimizni, madaniyatimizni yòq bolib ketishiga jim qarab turmasligimiz kerak. Chet el madaniyatiga kòr-ko'rona ergashish orqali yoshlarimizning manaviy axloqi buzuq bo'lib tarbiya topishiga zamin yaratib bermoqdamiz."Ommaviy madaniyat" markazidan biri AQSH bu mafkurani ko'r-kòrona targ`ib etib kelishmoqda. Buning sababi bo`lsa barcha Amerikada yashovchilarni bir "Amerikaliklar" degan mafkurani singdirishga urunishdir. AQShning taniqli siyosatshunosi Zbignev Bjezinskiy shunday yozadi: «...Madaniyat sohasida Amerika jahon yoshlari orasida alohida jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bu esa AQShga jahoning hech bir davlatiga nasib qilmagan siyosiy ta'sirni ta'minlaydi. Ayniqsa, Amerikaning televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining

"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

to'rtdan uch qismini egallaydi. Uning ommabop musiqasi, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishlaridagi odatlari va hatto, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar». AQSh siyosati va mafkurasi namoyandalari o'z mamlakatlari manfaati, siyosati va turmush tarzini faqat kitoblar, publisistik chiqishlar orqali targ'ib etish bilan cheklanib qolayotganlari yo'q. Shu sababli ham Amerika OAVlarida "Ommaviy madaniyat"ning turli shakllariga duch kelamiz. O`z-o`zidan savol tug'iladi nima uchun "ommaviy madaniyat" yoshlar orqali dunyoning barcha hududlarida namoyon bo'lmoqda?

Chunki yoshlar ongida bo'shliqlar mavjud bo`lib qolmoqda. Ushbu bo'shliq - internet, OAV orqali yoshlar ongini to'ldirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday ozuqani u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketayapti!"²

Yoshlar ongi xuddi shunday ozuqaga muhtoj bo`lib bormoqda. Kerakli ozuqani o'zi yashayotgan muhitdan topa olmasa, u bu ozuqani boshqa joydan izlashi tayin. Shuning uchun ham "ommaviy madaniyat"ning yoshlar hayotida òrni kundan kunga ortib bormoqda. Yoshlar ongidagi g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan kirib kelayotgan, biz uchun yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tuban illatlarni o'z ichiga olgan bu "madaniyatlar" ko'plab falokatlarning ibtidosidir. "Ommaviy madaniyat" degan ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig'dirolmaydigan ko'plab axloqiy buzuqlik g'oyalari mavjud. Xususan, zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, ana shu axloqsizlik orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning qadim an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar ana shular jumlasidandir. Ayniqsa, ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni "madaniyat" deb atalishi, yoki, ming yillik ma'naviy qadriyat va an'analarni bepisandlik bilan "eskilik sarqiti" deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan an'analar bilan almashtirish ongli insonga xos xalqimiz qadimdan madaniyat o'chog'idan biri bo`lib kelmoqda.

Ayniqsa temuriylar davrida yer yuzida eng madaniyatli shaharlar paydo bo`ldi va mavjud shaharlar ushbu darajaga keldi.

Mashur yozuvchi va tarixchi F.R.Martin "Temuriylar singari san'ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan" deb fikr yuritadi. Ushbu madaniyatning shakllanishi yillar davomida yuksak cho`qqidiga erishdi. O'sha eskilik sarqidi deb qaraloyotgan milliyligimizni biz yoshlar asl mohiyatini tushunishimiz va unga nisbatan g`urur hisini tuymog`imiz kerak. Yoshlarni "ommaviy madinyat" kushandasiga tushib qolmasigini butun jamiyat birlashgan holda omalga oshirmoǵimiz kerak. Yoshlarni bolalikdan to`g`ri ruhda tarbiyalash öz millatidan, öz otabobolarining urf-odatlaridan, qadriyatlaridan faxr hisida tarbiyalamog`imiz va ozo`zini anglash tushunchasini to`gri talqin etmoq kerak. Yoshlar qiziquivchan va izlanuvchan, shu bilan birgalikda sodda hamdirlar.

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, Yurtimizning kelajagi va ertasi yoshlar qo`lida ekan, katta avlodning oldidagi vazifa – yoshlarning bo'sh vaqtini samarali band qilish; ularga mutolaa sirlarini o'rgatib, kitobxinlikni keng targ'ib qilish; sportga ommaviy jalb qilish, zehnini o'tkirlaydian, qalbini yumshatadigan, vatanparvarlik tuyg'usini jo'shtiradigan kitoblarni tanlashlashda yordamchi bo'lish; oldi-qochdilardan san'at asarini farqlash sirlarini o'rgatish; behayolikni go'zallik emas, aksinchaligini tushuntirish; halol-haromni anglatish masalasida o'ta qat'iyatli bo'lish; ko'rgan kechirganlariga taqlid qilib ketavermasdan, ularni aql tarozisiga solib foyda- ziyonini chandalab ko'rish ko'nikmasini shakllantirish va milliy urf odatlarimiz bo`lgan munosabatlarni ijobiy shakllantirishimiz, shu bilan birgalikda qadriyatlarimizni e'zozlashni, an'analarimizga eskilik sarqiti emas, balki, milliy madaniyatimizning merosi sifatida qadrlashimiz; keljak avlod uchun ularni asrab avaylashni ñorgatmog`imiz kerak. Turli ijtimoiy tarmoqlarda uzatilayotgan informatsiyalarni qabul qilayotgan yoshar ongida analiz va sintez qila oladigan madaniy ongni shakillantirishimiz kerak. Shundagina biz milliyligimizni saqlab qolish va milliy mentalitetimizga bo'lgan ommaviy madaniyatning tasirini kamaytirishimiz mumkin bo'ladi va yuqorida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar orqali mafkuraviy immunitet hosil bo'ladi.

ezgu qadriyatlarni boshqa bo'lmagan odatdir. Bizning



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Özbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Komolot" harakatining IV qurultoydagi nutqi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev
3. „Ommaviy madaniyat” – ma’naviyat kushandası“. islom.uz.
4. "Ma'naviyat va yoshlar" Ğ. Shodiyev; Toshkent:Abu Matbuot
5. Konsalt, -2008
6. G'oyibnazarov Sh. "Ommaviy madaniyat" qo'llanmasi. Toshkent. -2012.155-bet